


Qozog'istonda o'zbek tikuvchilik va kashtachilik san'atiga bag'ishlangan ko'rgazma o'tkazilmoqda

Ayni kunlarda Qozog'iston poytaxti Ostona shahridagi Milliy muzeyda o'zbek tikuvchilik va kashtachilik san'atiga bag'ishlangan ko'rgazma bo'lib o'tmoqda. Ko'rgazmada XIX-XX asrlarga oid nodir buyumlar: zardo'zlik liboslari, so'zanalar, milliy naqshli erkaklar va ayollar do'ppilari, bezakli choyshablar, zargarlik buyumlari namoyish etilmoqda. Asarlar o'zbek kashtachiligi uchun an'anaviy bo'lgan "zamindo'zi" va "guldo'zi" usullaridan foydalangan holda tayyorlangan. So'nggi yillarda qo'shni mamlakatlar bilan har sohada bo'lgani singari madaniy aloqalarimiz ham rivojlanib borayotganini mazkur ko'rgazma tasdiqlaydi.





Ko'rgazma kuratori: San'atshunoslik instituti "Tasviriy va amaliy-bezak san'ati" bo'limi katta ilmiy xodimi, san'atshunoslik fanlari nomzodi Zafara Aliyeva.

Ko'rgazma 1-iyunga qadar davom etadi. O'zbek madaniyatiga bag'ishlangan ushbu noyob ko'rgazma qardosh yurt vakillarida qiziqish uyg'otishiga ishonamiz.